

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida amalga oshirilgan ma’naviy- ma’rifiy ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT

Universitetda joriy yilning dekabr oyida ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishida bir qator amaliy ishlar tashkil etildi.

Jumladan, joriy yilning 1-dekabr kuni Butunjahon OIV va OITS ga qarshi kurash kuni munosabati bilan universitetning barcha fakultet talabalari bilan tadbirlar tashkil etildi. Tadbirlar davomida talabalar OIV va OITS haqidagi asosiy ma’lumotlar berildi.

https://t.me/uzswlu_mmb/30023,

https://t.me/uzswlu_mmb/30033,

https://t.me/uzswlu_mmb/30039,

https://t.me/uzswlu_mmb/30044

Joriy yilning 2-dekabr kuni Ingliz tili 3-fakulteti mas’ullari “Jonajon maktabimga kitob sovg‘a qilaman” loyihasi doirasida Shayhontohur tumanidagi 102-IDUM maktabiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga universitet nomidan turli qiziqarli va bolajonlar uchun zarur bilimlarga boy kitoblar sovg‘a qilindi. Maktab o‘quvchilari kitoblar uchun minnatdorchilik bildirishdi va a’lo baholarga o‘qib, kelajakda ilmi yetuk inson bo‘lib yetishishga va’da berishdi. <https://t.me/UzSWLU/27527>

Joriy yilning 2-dekabr kuni universitetda Iqtidorli talabalar bilan ishlash va Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifiyat ishlar bo‘limlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlab, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari va tamoyillarini o‘rganish bo‘yicha olimpiada tashkil etildi. Ushbu tanlovda universitet fakultetlaridan jami 50 dan ortiq talabalar huquqiy bilimlarini sinovdan o‘tkazishdi. <https://t.me/UzSWLU/27538>

Joriy yilning 2-dekabr Rus filologiyasi fakulteti talabalari Alisher Navoiy nomidagi kutubxonaga tashrif buyurishdi. Tadbir doirasida, fakultet ARM xodimlari va tyutorlar bilan birgalikda Shuxrat G‘oyibnazarovning kitob taqdimoti o‘tkazildi. Ushbu uchrashuv talabalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va kitoblarning ta’limdagi ahamiyatini tushunishga yordam berish maqsadida tashkil etildi. Tadbir davomida kutubxona bo‘ylab qiziqarli ekskursiya o‘tkazilib, talabalar noyob nashrlar va keng adabiy to‘plamlar bilan tanishdilar. https://t.me/uzswlu_mmb/30163

Joriy yilning 2-dekabr sanasida, 5 muhim tashabbusning 3-yo‘nalishi bo‘lgan "Kompyuter savodxonligi" bo‘yicha Ingliz tili 3-fakultetida “Fast typing” musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Musobaqani yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan muovini N.Kadirova ochib berdi, shuningdek hozirgi texnologiyalar asrida kompyuter savodxonligi qanday ahamiyatga ega ekanligi jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy hayotida IT mutaxassislarining o‘rni haqida to‘xtalib o‘tdi. Shuningdek, talabalar orasida ushbu yo‘nalishga qiziqadiganlar bo‘lsa fakultet rahbariyat doimo ularni qo‘llab quvvatlashga tayyor ekanligini ta’kidladi. https://t.me/uzswlu_mmb/30173

Joriy yilning 3-dekabr kuni universitet Xotin-qizlar psixologi Sh.Bo‘stonova tashabbusi bilan. Universitetimiz “Qizlarjon klubi” faollari ishtirokida, Universitetimizda psixologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida, ustoz va

talabalaridan intervyu olinib, ularning fikr va mulohazalari o'rganildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30095

Joriy yilning 3-dekabr kuni Sharq filologiyasi fakulteti tyutori I.Yo'ldosheva tomonidan kechki 2-bosqich talabalari ishtirokida "Korrupsiya-kelajak kushandasi" nomli tadbir tashkil qilindi. Tadbirda korrupsiyaning jamiyatga salbiy ta'siri, uning oldini olish yo'llari va yoshlarning bu boradagi roli haqida so'z yuritildi. Talabalar korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati va bu borada qanday choralar ko'rish kerakligi haqida ma'lumot oldilar. Tadbir davomida talabalar o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar va mavzu yuzasidan savol-javoblar o'tkazildi. Bu kabi tadbirlar yoshlarni korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etishga undaydi va ularning huquqiy savodxonligini oshiradi. https://t.me/uzswlu_mmb/30101

Joriy yilning 3-dekabr kuni Ingliz tili 2-fakulteti mas'ullari 8-dekabar konstitutsiya kuni munosabati bilan o'quv binosini bezatish tadbirini tashkil qilishdi. Ushbu tadbirda fakultet yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini M.Jakbarov, tyutorlar hamda talabalar ishtirok etishdi. Ushbu tadbir Konstitutsiya bayramini yuqori kayfiyat va saviyada nishonlash maqsadida bo'ldi. Shuningdek, har bir talaba yoshlarda vatan tuyg'usini, mustaqillikni yanada chuqurroq his qilishga yordam berdi. <https://t.me/UzSWLU/27548>

Universitetda 3-dekabr "Xalqaro Nogironlar kuniga bag'ishlangan" "Biz o'zgachamiz, barchamiz birgamiz" shiori ostida tadbir o'tkazildi. Bu kun 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan bo'lib, uning maqsadi nogironlar huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta'minlash va nogironlarga nisbatan e'tiborni oshirishdir. Tadbirni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor V. Sadiyev ochib berdi va rektor I.Tuxtasinov tomonidan yo'llangan murojaatini o'qib eshittirdi. Tadbirda iqtidorli talabalar tomonidan qo'shiqlar, raqslar, vatanni madh etuvchi she'rlar ijro etildi. Tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. <https://t.me/UzSWLU/27552>

3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan Rus filologiyasi fakulteti faol talabalari va tyutorlar Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanidagi 25-Maxsus maktab-internatiga tashrif buyurdilar. Tadbir fakultet dekani, dekan o'rinbosarlari, tyutorlar, fakultet yoshlar yetakchisi va fakultetning faol talabalari tomonidan tashkil etildi. Tadbir davomida talaba-yoshlar o'quvchilarni tabriklab, ular uchun qiziqarli dastur tayyorlab taqdim etishdi, bunda qo'shiqlar, raqslar va tabriklar o'rin oldi. Ushbu kun barcha ishtirokchilar uchun yorqin lahzalarga aylandi, chunki bolalar nafaqat yaxshi kayfiyatga ega bo'ldilar, balki ularga sovg'alar ham taqdim etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30153

3-dekabr – "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan Ingliz tili 1-fakultetida xayriya tashkil etildi. Yurtimizda har bir insonning o'z qadr-qimmatini bor. Jumladan, imkoniyati cheklangan yoshlar, bolalar ham doimiy e'tiborda. Ularga g'amxo'rlik qilish, iqtidorlarini yuzaga chiqarishda ko'maklashish, orzu-umidlarini amalga oshirish yoshlar siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu kun munosabati bilan Ingliz tili 1-fakultetida xayriya o'tkazilib, 3-dekabr kuni fakultet tyutori N.Islomova va bir guruh iste'dodli talabalar bilan birgalikda Uchtepa tumanidagi 199-sonli imkoniyati cheklangan bolalar maktab internatiga borib, unda

turli bayram dasturlari va ko'plab ezgulik tuhfalari orqali bolalarga quvonch ulashishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30113

Joriy yilning 3-dekabr kuni universitetda “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” shiori ostida Sahna ko‘rinishlari tanlovining final bosqichi bo‘lib o‘tdi. Tadbirni yoshlar masalalari va ma‘naviy ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor V.Sadiyev ochib berdi. Sahna ko‘rinishlari tanlovida ishtirokchilar 10-15 daqiqalik qisqa chiqishlar asosida korrupsiyaga qarshi mavzular yuzasidan sahna chiqishlarini namoyish etdi. Tanlovda har bir fakultet o‘z jamoasi bilan qatnashdi. Jamoalarning chiqishlari hakamlar hay‘ati tomonidan baholandi. https://t.me/uzswlu_mmb/30121

Joriy yilning 3-dekabr kuni Roman-german filologiyasi fakultetida Tarix fanlar kafedrasida o‘qituvchisi dotsent N.Bobojanova bilan tyutor R.Madraximov hamkorligida “Konstitutsiyam-qadr qimmatim” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Asosiy qonunimiz mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish va rivojlantirish, jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil liberallashtirish va modernizatsiya qilish hamda “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini amalga tadbiriq etishda mustahkam huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda. Keyingi yillar davomida keng ko‘lamli ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning hayotga tadbiriq etilishi natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar, mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik haqidagi atroflicha ma'lumotlar ham tadbiriq qatnashchilarining e'tiboriga havola qilindi. https://t.me/uzswlu_mmb/30226

Joriy yilning 4-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan Ingliz tili ikkinchi fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari Z.Hasanov boshchiligida tyutor M.Yuldosheva o'ziga birlitirilgan 1-kurs talabalari ishtirokida ma'naviy-marifiy tadbiriq tashkil qildi. Tadbirda mustaqilligimizning ramzi, huquqlarimiz himoyachisi konstitutsiyamiz haqida atroflicha ma'lumot almashildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30145

Joriy yilning 4-dekabr kuni Sharq filologiyasi fakulteti kechki ta'lim tyutorlari J.Ramazonova va I.Jo‘rayev boshchiligida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan bayram tadbiriq tashkil etildi. Tadbiriq davomida Konstitutsiyaning ahamiyati, uning xalqimiz hayotidagi o‘rni va roli haqida ma‘ruzalar qilindi. Shuningdek, Konstitutsiyamizda belgilangan inson huquqlari va erkinliklari, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalar haqida suhbatlar o‘tkazildi. Bayram tadbiriq ko‘tarinki ruhda o‘tdi va barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

https://t.me/uzswlu_mmb/30168,

https://t.me/uzswlu_mmb/30171

Joriy yilning 4-dekabr kuni Ingliz tili birinchi fakultetida Konstitutsiyamizning 32 yilligi munosabati bilan “Konstitutsiya bilimdoni” shiori ostida talabalar o‘rtasida intellektual o‘yin tashkil qilindi. O‘yin doirasida talabalar Konstitutsiya haqidagi bilimlarini yanada mustahkamladi, shuningdek, chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishdi. Ushbu tadbiriq har bir talaba yoshlarda vatan tuyg'usini, mustaqillikni yanada chuqurroq his qilishga yordam berdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30180

Joriy yilning 4-dekabr — Rus filologiyasi fakulteti tyutorlari va talabalari Chilonzor tumani yong'in xavfsizligi bo'limiga o'z bilim va tajribalarini oshirish

maqsadida tashrif buyurishdi. Tashrif davomida yong'inda xavfsizlikni ta'minlash, yong'inni o'chirishda ishlatiladigan vositalar va ularning amaliy qo'llanilishi haqida batafsil tushuntirishlar berildi. Bo'lim mutaxassislari talabalarga yong'inga qarshi kurashishda zarur bo'lgan uskunalarni amalda ko'rsatib, ularga xavfsizlik qoidalarini o'rgatdilar. https://t.me/uzswlu_mmb/30215

Joriy yilning 5-dekabr kuni Ingliz tili 1-fakulteti tyutori G.Abdullayeva tashabbusi bilan 5 muhim tashabbusning IT yo'nalishi bo'yicha seminar-dars tashkil qildi. Darsda 1-kurs talabalari faol ishtirok etib, hemis tizimidan foydalanishning xato va kamchiliklarini bartaraf etish choralarini o'rganishdi. Shuningdek, o'zlarini qiziqtirgan savollarga tyutori tomonidan javoblar olishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30184

Joriy yilning 5-dekabr kuni Ingliz tili 2-fakultetida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — erkin va farovon hayot garovi" shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi. Tadbir fakultet tyutori M.O'tbosarova tomonidan tashkil etilib, unda fakultet yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovinlari M.Jakbarov va Z.Xasanov hamda talaba yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi qonunlar va ularning xalqqa qanday imkoniyatlar yaratishi haqida atroflicha fikr almashildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30192

Joriy yilning 5-dekabr kuni Ingliz tili birinchi fakulteti tyutorlari D.Burxonova, P.Jabborova, S. Berdiyevalar tashabbusi bilan "Konstitutsiya bilimdoni" shiori ostida talabalar o'rtasida viktorina o'tkazildi hamda 2409-guruh talabalari tomonidan tadbir tashkil etildi. Tadbir davomida iqtidorli talabalar tomonidan Konstitutsiyamizni madh etuvchi she'riy chiqishlar namoyish etildi. Fakultet talabalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlarga ulanib ketgan mazkur tadbir barchaga birdek xush kayfiyat ulashdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30204

Joriy yilning 5-dekabr kuni Ingliz tili 3-fakulteti dekani I.Bazarov va ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan muovini Sh.Zokirov hamda tyutorlar L.Raxmatullayeva, D.Tuxtamurodova va M.Allamovalar konstitutsiya kuniga bag'ishlab tadbir tashkil qilishdi. Shuningdek, har bir talaba vatan tuyg'usini, mustaqillikni yanada chuqurroq his qilishga yordam beradi. https://t.me/uzswlu_mmb/30210

Joriy yilning 5-dekabr kuni universitet 6-Talabalar turar joyida Oilaviy ajrimlarni oldini olish hamda talaba qizlarning o'z hayot ma'suliyatini to'liq anglatish maqsadida sonli talabalar turar joyi talaba-qizlari o'rtasida "O'z kelajaging uchun o'zing mas'ulсан" nomli seminar trening tashkil etildi. Seminar trening davomida talabalar bilan ro'lli o'yinlar orqali ota-onalar va yaqinlarining emotsiyalarini his ettishlari uchun ko'maklashildi. Trening qiziqarli mulohazalarga boy bo'ldi. Mazkur seminar-trening universitet xotin-qizlar psixologi Sh.X.Bo'stonova, 6-TTJ pedagogi Z.X.Ubaydullayeva, Roman-german filologiyasi fakulteti xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi Z.P.Achilovalar tomonidan tashkil etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30229

Joriy yilning 5-dekabr kuni Roman-german filologiyasi fakultetida Ispan tili amaliy fanlar kafedrasida o'qituvchisi S.Axadova tomonidan "Korrupsiya – kelajakka tahdid" mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Tadbirda 1-kurs talabalari va kafedra

o'qituvchilari ishtirok etdi. Suhbat davomida korrupsiya tushunchasi, uning turlari va kelib chiqish sabablari, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari muhokama qilindi. Talabalar o'z fikrlarini bildirdilar va korrupsiyaga ta'rif berdilar. Tadbir qisqa savol-javoblar muzokaralarga boy, qiziqarli va mazmunli o'tdi. Korrupsiyaga qarshi kurash har bir fuqaroning mas'uliyatiga aylanishi zarur, chunki bu ma'rifatning asosini tashkil etadi. https://t.me/uzswlu_mmb/30232

Joriy yilning 5-dekabr kuni universitetda "Adolat" sotsial demokratik partiyasi tomonidan taraqqiyotning huquqiy asoslarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish maqsadida o'tkazib kelinayotgan "Konstitutsiya bilimdoni" ko'rik tanlovining respublika final bosqichi bo'lib o'tdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30235

Joriy yilning 6-dekabr sanasida Ingliz tili birinchi fakultetida "Kitobxon" musobaqasi tashkil etildi. Bellashuvga 2301, 2302, 2303, 2304-guruhlar jalb etildi. Tadbirda Zulfiyaxonim, Said Ahmad O'tkir Hoshimov va Muhammad Yusuf hayoti va ijodi yoritib berildi, shuningdek, ularning hayot yo'llari va asarlari sahnalashtirildi. Musobaqa yakunida g'olib jamoalar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. https://t.me/uzswlu_mmb/30251

Joriy yilning 6-dekabr sanasida universitet psixologi Z.T.Xayrullayeva hamda ingliz tili 3- fakulteti tyutorlari L.Raxmatullayeva va D.Tuxtamurodovalar xamkorligida har yili dunyo miqyosida 25-noyabrdan 10-dekabrgacha "Zo'ravonlikka qarshi 16 kun" faol harakatlar doirasida seminar trening tashkil etildi. Seminar treningda mavzuga doir mashg'ulotlar shuning bilan birgalikda ruhiyatni ko'taradigan psixologik trening o'yinlari amalga oshirildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30256

Joriy yilning 6-dekabr sanasida Ingliz tili uchinchi fakulteti tyutorlari Sh.Hamdamova, N.Xodjayeva, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti A.Shofqorov hamda 4-kurs talabalar Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markaziga tashrif buyurdilar va "Konstitutsiya mening hayotimda" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi. Mazkur tadbirda Axborot-kutubxona markazi direktori Xafiza Karimova va ustozlar Konstitutsiyaning asosiy qoidalari va ularning kundalik hayotdagi ahamiyati haqida o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30261

Joriy yilning 6-dekabr kuni Rus filologiyasi fakultetida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Tadbir doirasida talabalar Konstitutsiyaning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritgan ma'ruzalari tayyorladilar. Shuningdek, milliy raqslar, she'rlar va boshqa ijodiy chiqishlar bilan o'zlarining bilim va talantlarini namoyish etdilar. Tadbirda shuningdek, Konstitutsiya haqida qiziqarli viktorina o'tkazildi, unda ishtirokchilar huquqiy bilimlarini sinovdan o'tkazib, asosiy huquqiy hujjatimizga nisbatan bilimlarini oshirdilar.

https://t.me/uzswlu_mmb/30267, https://t.me/uzswlu_mmb/30272

Joriy yilning 6-dekabr kuni Sharq filologiyasi fakulteti tyutorlari B. Mirzayeva va D. Nurullayev boshchiligida besh tashabbus doirasida talabalar o'rtasida stol tennisi va voleybol o'yinlari tashkil qilindi. Ushbu sport tadbirlari talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, jismoniy faollikni oshirish va sog'lom turmush

tarzini targ'ib qilish maqsadida o'tkazildi. Tadbir davomida talabalar o'zaro raqobatlashib, sportning mazkur turlari bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Bu kabi tadbirlar talabalarning jamoaviy ruhini mustahkamlashga va ularning sportga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. https://t.me/uzswlu_mmb/30274

Joriy yilning 6-dekabr sanasida Ingliz tili ikkinchi fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini Z.Hasanov boshchiligida fakultet tyutori M.Yuldosheva "Kiberjinoyat qurboniga aylanib qolmang, quyidagi qoidalarga amal qiling!" shiori ostida targ'ibot tadbiri tashkil qildi. Unda Uchtepa tumani I.I.O va ATSJOOB xodimlari katta leytenant D.Orozqulova, leytenant B.Karimov, katta leytenant J.Torayev va universitet profilaktika katta inspektori kapitan M.Nurmuxamedovalar ishtirok etdi. 1-kurs talabalarini jalb qilgan tadbir yoshlarni turli xabarlarga ishonib, shaxsiy ma'lumotlarini berib yubormaslikka, kiber hujumlar qurboni bo'lmaslik uchun ogohlantirishlarga e'tibor berishga chaqirdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30343

Joriy yilning 6-dekabr kuni Ingliz tili-3 fakultetida "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" rukni FVV akademiyasining Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi, dotsent podpolkovnik B.Malohat va tyutorlar Sh.Hamdama N.Xodjaeva hamda Ingliz tili integrallashgan kursi N3 kafedrasida katta o'qituvchisi M.Xakimova ishtirokida fakultetning talaba-yoshlari bilan davra suhbat tashkil etildi. Suhbat jarayonida ma'ruzachi podpolkovnik M.Badalbayeva tomonidan zo'ravonlikning iqtisodiy, siyosiy, diniy, ruhiy va boshqa turlari ularga qarshi kurashishda har qanday zo'ravonlikka qonuniy jihatdan jiddiy chora-tadbirlar ko'rilishi yuzasidan talaba-yoshlarga tushuntirish ishlari olib borildi. "Oilaviy zo'ravonlik" va "gender tenglik tushunchalari mohiyati oddiy hayotiy misollar va videoroliklar orqali yoritildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30399

Joriy yilning 7-dekabr kuni Ingliz tili 1-fakultet tyutorlari D.Matyakubova va M.Asqarovalar tashabbusi bilan 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-yilligi munosabati bilan "Siz qonunni bilasizmi?" mavzusida Zakovat intellektual o'yini o'tkazildi. Intellektual o'yinda 9 ta jamoa kuch sinashib, g'olib bo'lgan jamoalarni fakultet dekani A.Yuldashev tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirladilar.

https://t.me/uzswlu_mmb/30302,

https://t.me/uzswlu_mmb/30308

Joriy yilning 7-dekabr kuni universitet Ma'naviyat va ma'rifat markazi binosida Roman-german filologiyasi fakulteti tomonidan "TALENT SHOU"si o'tkazildi. Tadbirda fakultet dekan muovinlari, tyutorlar va talabalar ishtirok etishdi. "TALENT SHOU" davomida iqtidorli talabalar san'atning turli yo'nalishlarida o'z mahoratlarini namoyon etdilar. Ular she'rlar aytib, qo'shiqlar kuylashdi, shuningdek, dizayner qizlar o'z chizgan eskizlarini rasmlar orqali namoyish etdilar. Tadbir tomoshabinlarning diqqat e'tiboriga sazovor bo'ldi. Mazkur shou fakultet tyutori R.Madrahimov tomonidan tashkil etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30370

Joriy yilning 7-dekabr kuni Ingliz filologiyasi fakultetida Konstitutsiyaning 32 yilligi munosabati bilan "Mening Konstitutsiyam — sha'nim va qadrim himoyachisi" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri direktor o'rinbosari, aktyor Xayrulla

Inog'omov, Tarix fanlari doktori, professor Dilorom Bobojonova, Uchtepa tuman xotin-qizlar masalalari bo'yicha hokim o'rinbosari Saodat Norqobilova ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar e'tirof etganidek, Konstitutsiya jamiyatdagi har bir shaxsning hayotida uchrab turadigan muammolarning yechimi ekanligi hamda Konstitutsiya mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining mustahkam tayanchi va huquqiy kafolati hisoblanishi haqida gapirib o'tdilar. Dastur davomida maxsus tayyorlangan videoroliklar, ko'plab ijodiy chiqishlar, sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Konstitutsiya mavzusida o'tkazilgan savol-javoblar tadbirga qizg'in kayfiyat baxsh etdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30389

Joriy yilning 7-dekabr sanasida universitet 1-va 2-sonli talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan talabalar ishtirokida targ'ibot tadbiri tashkil etildi. Ushbu tadbirda universitet psixologi Z. Xayrullayeva, xotin-qizlar masalalari bo'yicha psixolog Sh. Bo'stonova, profilaktika inspektori, kapitan Sh. Bekmetov, shuningdek, pedagog-tarbiyachilar M. Saburova va F. Gazibayeva ishtirok etdilar. Uchrashuv davomida ishtirokchilar talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazib, ularning muammolarini tinglashdi va ularga psixologik yordam ko'rsatishning ahamiyatini ta'kidladilar. Psixologlar talabalarning ruhiy holatini yaxshilash, stress va muammolarni bartaraf etish bo'yicha maslahatlar berdilar. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlari vakillari jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha ma'lumotlar taqdim etdilar. Tadbir oxirida ishtirokchilar psixologik xizmatlar va yordamga murojaat qilish imkoniyatlari haqida ma'lumot olishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30437

Joriy yilning 10-dekabr sanasida Rus filologiyasi fakultetida intellektual va madaniy tadbir – “Zakovat Quiz” bo'lib o'tdi. Ushbu qiziqarli loyiha kafedra o'qituvchilari Temirova M., Ibragimova O. va Ufimtseva E. tomonidan tashkil etilib, talabalar uchun haqiqiy bilim va ijodiy imkoniyatlar maydoniga aylandi. Kviz davomida talabalar adabiyot, kino, musiqa, san'at hamda maqollar va matallar haqidagi savollarga javob berib, o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Har bir savol ularni yangi ma'lumotlarga yetaklab, ijod va tafakkurga undadi. Tadbir samimiy, qiziqarli va bir vaqtning o'zida o'qituvchi hamda talabalar orasida do'stona muhitda o'tdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30457

Joriy yilning 10-dekabr kuni Rus filologiyasi fakulteti talabalari uchun rus adabiyoti va o'qotosh metodikasi kafedrasida o'qituvchilari Shvarts A.V. va Yuldasheva N.T. tomonidan O'zbekiston Qurolli Kuchlari muzeyiga ekskursiya tashkil etildi. Talabalar hududning harbiy tarixi bilan tanishib, Amir Temurning harbiy yurishlari, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi, shuningdek, O'zbekiston zamonaviy qurolli kuchlari haqida ma'lumotga ega bo'lishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30464

10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan universitetda bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda universitet rahbariyati vakillari, professor-o'qituvchilar hamda talabalar ishtirok etdi. Tadbirni universitetning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Valijon Sadiyev ochib berdi hamda barcha yig'ilganlarni bayram bilan qutladi. Tarix fanlari bo'yicha fan doktori, professor Dilorom Bobojonova yig'ilganlarga madhiyaning qabul qilish jarayonlari va tarixi haqida so'zlab berdi.

https://t.me/uzswlu_mmb/30469,

https://t.me/uzswlu_mmb/30470,

https://t.me/uzswlu_mmb/30489, https://t.me/uzswlu_mmb/30493,

Joriy yilning 11-dekabr kuni Rus filologiyasi fakultetining "Rus tili va o'qitish metodikasi" kafedrası o'qituvchisi Temirova M. rahbarligida "Qadriyatlar qadr topgan yurt va dunyo xalqlari an'analari" mavzusida qiziqarli tadbir tashkil etildi. Tadbir davomida talabalar o'zlarining ijodiy chiqishlari, milliy va xalqaro an'analarni aks ettiruvchi ko'rgazmalari, kuy-qo'shiqlari va boshqa qiziqarli ishtiroklari bilan barchani mamnun qilishdi. Milliy qadriyatlarimizning chuqur ma'nosi va dunyo xalqlari urf-odatlarining rang-barangligi ushbu tadbirning asosiy ilhom manbai bo'ldi. https://t.me/uzswlu_mmb/30481

Joriy yilning 11-dekabr kuni Rus filologiyasi fakultetida "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyat va kelajakka e'tibor" deb nomlangan adabiy tanlovning birinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir Rus adabiyoti va o'qitish metodikasi kafedrası tomonidan Yangi yil arafasida tashkil etildi. 3-kurs talabalarining ijodiy yondashuvi va iste'dodi sahna asarlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Ular o'z mualliflik ertaklarini tomoshabinlarga taqdim etib, yaxshi niyat, adolat va ilhom haqida chuqur ma'nomazmuni yetkazdilar. https://t.me/uzswlu_mmb/30485

Joriy yilning 11-dekabr kuni "Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish" bo'lim tyutori A.Mirbabaeva va Universtitet ichki ishlar xodimlari boshchiligida "Xakkerlar xujumidan ogoh bo'ling" mavzusida ma'ruza olib borildi. Unda talabalar bilan qiziqarli savol-javoblar o'tkazildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30502

Joriy yilning 12-dekabr sanasida Ingliz tili ikkinchi fakulteti tyutori M.Yuldosheva o'ziga birlashtirilgan 1-kurs talabalariga Ma'rifat soati darsi o'tish davomida talabalar tomonidan tayyorlab kelingan xalqimizning sevimli adibi O'tkir Hoshimovning "Dunyoni ishlari" asari bo'yicha kitobxonlik tadbiri tashkil qildi. Tadbirda adib hayoti va ijodiga haqida ma'lumotlar almashib, qiziqarli savollarga javob berishdi. Shuningdek, viktorinada g'olib bo'lgan talabalarga esdalik sovg'alar topshirildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30530

Joriy yilning 12-dekabr sanasida Ingliz tili 1-fakulteti tyutorlari M.Asqarova, D.Matyakubova va D.Burxonovalar tomonidan talabalar turar joyida yashovchi she'riyatga qiziquvchi talabalar o'rtasida Besh muhim tashabbusning 4-tashabbusi yuzasidan "She'rxonlik" kechasi tashkil qilindi. Ushbu kechada talaba qizlar o'z ijodiga mansub, sevimli shoirlari qalamiga mansub she'rlardan parcha aytib berishdi. She'rxonlik kechasi Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Vatanim" she'ri asosida yaratilgan ashula bilan tugatildi.

https://t.me/uzswlu_mmb/30559,

https://t.me/uzswlu_mmb/30563

Joriy yilning 13-dekabr kuni Ingliz tili birinchi fakulteti tyutori P.Jabborova o'ziga birlashtirilgan guruh talabalar bilan ochiq ma'rifat darsi tashkil etdi. Darsda 2305, 2306-guruh talabalar Abdulla Qahhor va G'afur G'ulom hayot va ijodini yoritib berdi, shuningdek, talabalar o'zlarining aktyorlik mahoratlarini ko'rsatib, sahna ko'rinishlari namoyish etishdi. Bu kabi tadbirlarni o'tkazishdan maqsad yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishdir. https://t.me/uzswlu_mmb/30525

Joriy yilning 13-dekabr sanasida Ingliz tili uchinchi fakulteti tyutorlari Sh.Hamdanova va N.Xodjaevalarga birlashtirilgan guruh talabalar bilan birgalikda

ajdodlarimizdan buyuk jadid Abdulla Avloniyni hayoti va ijodini xotirlagan xolda "Avloniy" kinofilmi namoyish etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30551

Joriy yilning 13-dekabr kuni Rus filologiyasi fakulteti talabalari uchun juda muhim voqea bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Adolat sotsial-demokratik partiyasi binosiga tashrif buyurib, partiya faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Tashrif davomida talabalarimiz partiyaning turli bo'lim rahbarlari bilan muloqot qilib, ularning ish faoliyatini o'rganishdi. Shuningdek, partiyaning tashkiliy tuzilmasi, siyosiy dasturlari, jamoatchilik bilan ishlash va xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini oshirish borasidagi faoliyatlari haqida batafsil ma'lumotlar olishdi. Partiya rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar talabalarga o'zlarining siyosiy qarashlarini kengaytirish va jamiyatdagi o'rnini haqida yangi tushunchalar yaratishga yordam berdi. Tashrif yakunida, talabalar uchun esdalik sovg'alari taqdim etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30555

Joriy yilning 13-dekabr sanasida Ingliz tili ikkinchi fakulteti tyutorlari Sh.Abramatova, Sh.Kadirova hamda A.Ilhomjonova o'ziga birlashtirilgan talabalar bilan "Zakovat intellektual" o'yinining universitetlararo o'rtoqchilik uchrashuvida ishtirok etishdi. Ishtirokchilar juda katta bilimdonlik, jamoaviy ruh va g'alabaga intilishlarini namoyon etib, bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Tanlov yakunida g'oliblar va faol qatnashchilar maxsus tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. https://t.me/uzswlu_mmb/30569

Joriy yilning 13-dekabr sanasida "Kitob— insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi" mavzusida 2126-guruh talabalari bilan tadbir tashkil qilindi. Tadbir ingliz tili ikkinchi fakulteti Ingliz tilini o'qitish metodikasi 2-kafedrasida katta o'qituvchisi Rahmatova Nargiza tomonidan tashkil etilib, talabalar kitob naqadar fikrlash qiroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimizda uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblangani, shuning uchun kitobga muhabbat qo'yish, uni qadrlash, o'qishga bo'lgan ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgani to'g'risida fikr almashdilar. Shuningdek talabalar o'zlarining sevimli kitoblari bo'yicha tengdoshlari bilan o'z tushunchalarini bo'lishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30575

Joriy yilning 13-dekabr sanasida Olmazor tumani 196-umumta'lim maktabi va universitet Roman-german filologiyasi fakulteti, Ingliz tili ikkinchi fakulteti va Tarjimonlik fakultetlari bilan hamkorlikda "Xorijiy tillar bayrami" tadbiri o'tkazildi. Tadbirda O'zDJTU tomonidan Roman german fakulteti fransuz tili amaliy fanlar kafedrasida professor o'qituvchisi S.Matkarimov hamda Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida professor o'qituvchisi G'.Masharipov Ingliz tili 2-fakulteti Ingliz tilini o'qitish metodikasi 2-kafedrasida professor o'qituvchilari F.Ashurova X.Normo'minova va Tarjimonlik fakulteti tarjima nazariyasi va italyan tili yo'nalishi 3-kurs talabalari faol ishtirok etishdi. Shuningdek, o'quvchi yoshlarga chet tillarida kuy qo'shiqlar, she'r va ertaklar taqdim etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30581

Joriy yilning 14-dekabr sanasida ingliz tili ikkinchi fakulteti tyutori M.Yuldosheva talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida o'ziga birlashtirilgan 1-kurs talabalari bilan O'zbekiston Davlat Drama teatrida namoyish etilgan "Pik-Nik" nomli spektakl tomoshasiga borishdi. Do'stlik va ahillikni aks ettirgan yoshlarimizning tarbiyasini, ma'naviyatini va ularning vatanga bo'lgan

muhabbatini yuksaltirib, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shadigan spektakl barchaga birday yoqdi. Shu bilan birga talabalar ham bunday spektakllarga ko'proq kelish istagini bildirdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30611

Joriy yilning 14-dekabr sanasida Sharq filologiyasi fakulteti tyutori B.Mirzayeva, G.Odilova, Z.Ibrohimova tomonidan "Jadidlar - ma'rifat darg'alari" mavzusida talabalar uchun tadbir tashkil qilindi. Tadbirdan ko'zlangan maqsad yoshlar o'rtasida jadid bobolarimiz ilgari surgan milliy uyg'onish, maorif islohoti, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga qaratilgan g'oyalarni ilgari surish bo'ldi. Tadbir bellashuv shaklida bo'lib o'tdi. Bellashuv davomida talabalar jadidlar harakatining asosiy g'oyalari, ularning ma'rifatparvarlik faoliyati va jamiyatni yangilash yo'lidagi xizmatlari haqida bilimlarini namoyish etdilar. https://t.me/uzswlu_mmb/30640

Joriy yilning 16-dekabr sanasida universitet psixologi Z.Xayrullayeva yillik ish rejaning 2-bandi Psixodiagnostika ishlarini tashkil etish maqsadida "PSIXOLOGIK STRESSNI BAHOLASH SHKALASI" metodikasi taxlili amalga oshirildi. Universitet tyutorlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning ijtimoiy psixologik xolatini psixodiognos qilish maqsadida 2-ingliz tili, Tarjimonlik fakulteti tyutorlari ishtirok etishdi. Mutaxassislar bilan psixologik ishlarni tashkil etish jarayonida Stress o'zi nima? Ijobiy va salbiy stress turlari va ularni qiziqtirgan savollarga kerakli javoblar berildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30615

Joriy yilning 16-dekabr sanasida Ingliz tili 2-fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovnlari M. Jakbarov va Z. Xasanov hamda Tyutor M. Safarova boshchiligida talabalar uchun "Yangi yil shukuhi" nomli bayram tadbiri tashkil qilindi. Ushbu tadbirda iqtidorli va faol talabalarga estalik sovg'alari taqdim qilindi. https://t.me/uzswlu_mmb/30621

Joriy yilning 16-dekabr kuni universitet psixologi Z.Xayrullayeva hamda Tarjimonlik fakulteti tyutori N.Masadikova tomonidan talabalar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish maqsadida "Qo'l testi" talabalar ishtirokida psixodiagnostika ishlari amalga oshirildi. Qo'l testi proyektiv test bo'lib u shaxsning agressiv xulq – atvorini bashorat qilish uchun qo'llanadi. Test 1962-yil B.Brayklin, Z.Piotrovski va E.Vagnerlar tomonidan taklif etilgan. Trening davomida psixologik zo'riqishlarni oldini olishga qaratilgan psixogimnastik mashg'ulotlar ham tashkil etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30626

Joriy yilning 16-dekabr kuni Rus filologiyasi fakultetida Inson huquqlari kuniga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi. 10-dekabr – 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan kun hisoblanadi. Shu munosabat bilan 16-dekabr kuni Rus filologiyasi fakultetida ushbu muhim sanaga bag'ishlangan maxsus tadbir o'tkazildi. Tadbir davomida inson huquqlarining umumbashariy, ajralmas, begonalashmas, bir-biridan kelib chiqadigan va o'zaro bog'liq ekani haqida atroflicha tushuntirildi. Tadbirning asosiy maqsadi talabalar ongida huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularning inson huquqlari to'g'risidagi bilim va tushunchalarini kengaytirishdan iborat edi. https://t.me/uzswlu_mmb/30632

Joriy yilning 16-dekabr kuni Rus filologiyasi fakultetida "Yangi O'zbekistonda ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi" mavzusida davra suhbat bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida

professori, siyosiy fanlar nomzodi Tursunmurod Doniyorovich Mamatqobilov ma'ruza qildi. U o'z ma'ruzalari orqali talabalarga ekstremizmga qarshi kurashishdagi muhim strategik yo'nalishlar va Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida atroflicha ma'lumotlar berdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30639

Joriy yilning 16-dekabr kuni Sharq filologiyasi fakulteti tyutori J.Ramazonov tashabbusi bilan kechki FXITK-2404 va FXITK-2405 guruhlari talabalari o'rtasida "Kitobxonlik tanlovi" tashkil etildi. Bu tanlov talabalarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning bilimlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, tanlov davomida talabalar o'zlari o'qigan kitoblar haqida taqdimotlar qilishdi va savol-javoblar orqali bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Bu kabi tadbirlar talabalarning kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini oshirishda va ularning bilim doirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. https://t.me/uzswlu_mmb/30649

Joriy yilning 16-dekabr kuni universitet Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan Ma'naviyat va ma'rifat markazida Movie Night loyihasi doirasida "Uyda yolg'iz-1" filmi talaba-yoshlarga namoyish qilindi. Bu kabi badiiy filmlar namoyishi har hafta an'anaviy tarzda o'tkazib kelinmoqda. Yoshlarimizning esa ham madaniy, ham ma'naviy hordiq olishi ta'minlanmoqda. https://t.me/uzswlu_mmb/30654

Joriy yilning 16-dekabr kuni Ingliz filologiyasi fakulteti Kechki ta'lim 1-bosqich talabalari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. Fakultet tyutori Sadoqat Nurullayeva tashabbusi bilan talabalarning bilimini sinash, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'yin tashkil etilib, qiziqarli tarzda olib borildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30687, https://t.me/uzswlu_mmb/30691

Joriy yilning 17-dekabr sanasida Ingliz tili 3-fakulteti Xotin qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi X.Nishonova hamda tyutorlari o'zlariga birlashtirilgan talabalar bilan birgalikda milliy qadriyatlarimizni hamda kelajakda kasb hunarga qiziqtirish va tadbirkorlikda o'z mahoratlarini sinab ko'rishlarini amalda ko'rsatish uchun universitet hududida joylashgan "Kulolman" ustaxonasiga borildi. Maxorat mashg'uloti davomida xususiy tadbirkor "Kulolman" brendi asoschisi tomonidan ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30668

Joriy yilning 17-dekabr kuni rus filologiyasi fakulteti talabalari va tyutorlari "Bunyodkor" futbol klubining muzeyiga sayohat qilib, klub tarixini va sport yutuqlarini o'rganishdi. Talabalar futbolning ajoyib ruhini his qilib, klubning qadam qo'yishi, uning yuksalishi va ulug'vor g'alabalariga guvoh bo'lishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30673

Joriy yilning 17-dekabr kuni talabalar uchun nihoyatda foydali bo'lgan seminar-trening o'tkazildi! "Talabalarni ruhiyatini tetiklashtirish" mavzusida bo'lib o'tgan bu trening, imtihon jarayonlarida yuzaga keladigan zo'riqishlar va stressli vaziyatlarga qanday to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zini qanday tutish va muomila madaniyatini shakllantirishga qaratildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30676

Joriy yilning 17-dekabr kuni Ingliz filologiyasi fakulteti hamda Jahon adabiyoti kafedrasi o'qituvchilari Yuldosheva Shaxnoza hamda Qahhorova Dilafro'z

hamkorligida “Dramatik tur va uning janrlari” mavzusida ochiq dars tashkil etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30679

Joriy yilning 17-dekabr kuni Ingliz tili birinchi fakulteti tyutori G.Abdullayeva o'ziga birlashtirilgan guruh talabalari bilan Yangi yil bayrami tashkil qildi. Bayram tadbiri davomida, talabalar tomonidan qiziqarli shartlar va chiqishlar tashkil etildi, samimiy tilaklar bildirildi, shuningdek, yangi yil sovg'alari ulashildi. Tadbir so'ngida talabalar bilan bayramni yanada qiziqarliroq qilish maqsadida Tashkent city mallga sayohat uyushtirishdi. Bayram talabalar kayfiyatini ko'tarish, o'zaro hurmat, mehr va birdamlikni oshirish uchun tashkil etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30702

Joriy yilning 18-dekabr kuni universitet psixologi Z.Xayrullayeva hamda Ingliz tili 3-fakulteti dekan muovini Sh.Zokirov va tyutor Sh.Hamdama o'ziga birlashtirilgan 2311-2317-guruh talabalari bilan, talabaning muayyan sharoitga moslashishiga oid ishlarni olib borish maqsadida “Guruhda psixologik iqlimni aniqlash metodikasi” bilan fikr mulohazalarini tinglandi. https://t.me/uzswlu_mmb/30708

Joriy yilning 18-dekabr kuni Ingliz tili 2-fakulteti tyutori M.Maxkamova va Sh.Abramatovalar birgalikda “Bir bo'lsak yagona xalqimiz-birlashsak Vatanimiz” shiori ostida 2428-guruh talabalari bilan davra suhbatini o'tkazdi. Davra suhbatini davomida Vatanga bo'lgan muhabbat, insoniylik hislatlarini uyg'otish, talabalarda vatanparvarlik ruhini rivojlantirish haqida atroflicha fikr almashildi. Shuningdek, talabalar tomonidan tayyorlangan devoriy gazetalar suhbatini yanada tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minladi. https://t.me/uzswlu_mmb/30722

Joriy yilning 19-dekabr kuni Rus filologiyasi fakulteti zamonaviy rus tili kafedrasida katta o'qituvchisi Velishaeva E.S. tomonidan zargarlik buyumlari yasash bo'yicha mahorat darsi o'tkazildi. 2305-guruh talabasi bo'lgan qizlar ushbu darsda faol ishtirok etib, bezaklar yasash ko'nikmalarini egallashdi. Eng yoqimli tomoni shundaki, har bir ishtirokchi o'z qo'llari bilan yasagan sirg'alarni o'ziga sovg'a sifatida oldi. https://t.me/uzswlu_mmb/30728

Joriy yilning 19-dekabr kuni Rus filologiyasi fakultetida xotin-qizlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, zo'ravonlik ko'rinishlarining oldini olish va ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish mavzularida trening bo'lib o'tdi. Mazkur treningni universitet psixologi Z. Xayrullayeva olib bordi. Tadbir davomida ishtirokchilarga muhim tavsiyalar berildi, turli amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi va qiziqarli savol-javoblar o'tkazildi. Treningda ishtirokchilar o'zlari uchun yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30733

Joriy yilning 19-dekabr kuni Rus filologiyasi fakulteti tyutorlari va talabalari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov muzeyiga tashrif buyurishdi. Mazkur ekskursiya davomida talabalar Islom Karimovning hayoti, faoliyati va mamlakat mustaqilligini mustahkamlashdagi xizmatlari bilan yaqindan tanishishdi. Muzeyda namoyish etilgan noyob eksponatlar talabalarga yurtimiz tarixi va qadriyatlari haqida chuqurroq ma'lumot olish imkonini berdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30737

Joriy yilning 18-dekabr kuni universitet psixologi Bo'stonova Shaxzoda va Sharq filologiyasi fakulteti tyutorlari Ibrohimova Zarnigor va Fozilova Sadoqat

tomonidan 1-kurs talabalar ishtirokida “Shukronalik hissini uyg'otish” mavzusida psixologik trening tashkil etildi. Ushbu treningning asosiy maqsadi talabalar orasida shukronalik hissini rivojlantirish, ularning ruhiy salomatligini yaxshilash va stressni kamaytirish bo‘lib, trening davomida ular kundalik hayotlarida shukronalikni amalda qo‘llashning ahamiyatini tushunib yetishdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30775

Joriy yilning 19-dekabr sanasida Ingliz tili uchinchi fakulteti tyutorlari N.Xodjaeva Sh.Xamdama va 2-kurs 2309-guruh talabalar bilan birgalikda Fakultetda “Kitobxon talaba” loyihasi doirasida O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarini muhokama qilib davra suhbat bo‘lib o‘tdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30797

Joriy yilning 19-dekabr kuni Toshkent shahar Chilonzor tumanida joylashgan 22-sonli mehribonlik uyiga Ingliz filologiyasi fakulteti Ingliz tili funksional leksikasi kafedrasida o‘qituvchisi Rasulova Nodira Baxadirovna va 1-bosqich talabalar tashrif buyurishdi. Tashrif davomida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan turli xil qiziqarli o‘yin mashg‘ulotlari namoyish etildi va talabalar o‘zlarining muvaffaqiyat sirlari borasida bir qator fikrlar berib o‘tishdi. Tadbir so‘ngida barchaga ko‘tarinki ruh ulashish maqsadida sovg‘alar berildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30828

Joriy yilning 19-20 dekabr sanasida universitet psixologlari Z.Xayrullaeva, Sh. Bo‘stonovalar tomonidan “Talabalar bilan ishlashda muomala madaniyati va xulq-atvor” mavzida psixologik faoliyat amalga oshirildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30807

Joriy yilning 20-dekabr kuni Ingliz filologiyasi fakultetida "Xalqaro rezidensiyalar, konferensiyalarda ishtirok etish, she'r va maqola yozish" bo‘yicha seminar tashkil etildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30845

Joriy yilning 21-dekabr sanasida Ingliz tili uchinchi fakulteti tyutorlari Sh.Hamdama, N.Xodjaeva N.Ilyasova hamda Toshkent Shahar Uchtepa tumani bo'limi mutaxassisi Dilfuza Egamovalar “Yoshlarning ma’naviy-axloqiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi huquqbuzarlik, giyohvandlik, axloqsizlik kabi muammolarni bartaraf etishning samarali yo‘llari” mavzusida targ‘ibot tadbiri tashkillashtirildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30823

Joriy yilning 23-dekabr sanasida Ingliz filologiyasi fakulteti Ingliz tili funksional leksika kafedrasida tomonidan 5-TTJda 1-kurs talabalar ishtirokida “Qonun ustuvorligi jamiyat farovonligi garovi” mavzusida tadbir o‘tkazildi. https://t.me/uzswlu_mmb/30835

Joriy yilning 21- dekabr kuni tyutor M.O‘tbosarova o‘ziga birlashtirilgan talabalar bilan sayohat uyushtirishdi. Sayohatdan ko‘zlangan maqsad talabalar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo‘lib, muzey va "Magic city" bog‘iga borishdi. Sayohat davomida kerakli ma’lumotlar olindi, shuningdek, talabalar bilan o‘tgan vaqt maroqli va yuqori kayfiyatda o‘tdi. https://t.me/uzswlu_mmb/30852

Joriy yilning 21- dekabr kuni Rus filologiyasi fakulteti jamoasi Bo'stonliq tumanida joylashgan 125-son imkoniyati cheklangan bolalar internati o‘quvchilari uchun Yangi yil bayramini tashkil qilishdi. Ushbu bayram bolalar uchun haqiqiy mo‘jizaga aylandi! Tadbir davomida bolalarga sovg‘alar ulashilib, ularning yuzlariga tabassum va quvonch olib keldi. Fakultet jamoasining bu tashabbusi,

nafaqat bolalar, balki barcha ishtirokchilarning yuragida chuqur ta'sir qoldirdi. Mehr va g'amxo'rlik bilan tashkil etilgan bu bayram butun jamoaning saxovat va birlik timsoliga aylandi. https://t.me/uzswlu_mmb/30857